

ZAMONAVIY PEDAGOGNING JAMIYAT O'ZGARISHIDAGI PROFESSIONALLIK DARAJASINI OSHIRUVCHI METODIK KOMPONENTLARI

Abdullayeva Aziza Karimovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

San'atshunoslik fakulteti

Ta'lismuassasalarining boshqaruvi ta'limgo'naliishi

+998937254212

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagog qiyofasi, uning jamiyat o'zgarishlaridagi professionallik darajasini oshiruvchi metodik komponentlari, kasbiy mahuratini oshirish jarayonlari, ta'limgo texnologiyalariga moslashuvchanligi kabilar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: vakolat, modernizatsiya, pedagogik kasbiy mahorat, individual rivojlanish dasturi.

KIRISH

Har bir pedagogning o'z ustida ishlashi ta'limgo jarayoniga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etishi hamda talabalarga eng so'ngi yangiliklar asosida bilimlarni yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limgo talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'r ganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatiladi. Pedagog bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'limgo jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Chunki, pedagogik texnologiya va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetukmalakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'r in tutadi. Ayniqsa, ta'limgo modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarini amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisini kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga

diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proaktiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandardligi, ijtimoiy hodisalarini ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda pedagoglar ta'lim jarayonida ko'plab usul va metodlardan shuningdek, metodik kompetentlikdan xam foydalanadilar. Metodik kompetentlik deganda – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkiletish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash kabilar tushuniladi. O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug'aviy jihatdan "qobiliyat", mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi.

Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishgae'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda pedagogga "Individualrivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgankompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo'lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda «O‘qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta’rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O‘qituvchining kasbiy kompetentligi pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi. Buning uchun u: - ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi; - ijodiy izlanishlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. -Toshkent, 2001. – 69 b.
Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnye texnologii obucheniya. – Moskva:IRPO, 2016.- 336 s.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste’dod jamg‘armasi, 2010. – 142 b.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
4. N.A.Muslimov Bo‘lajak kasb-ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish T.,Fan 2014.